

## **Sirdaryo viloyatida kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari**

*2024- yil uchun*


- I. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni
- II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rinlari soni
- III. Umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
- IV. Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari
- V. Sanoat
- VI. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- VII. Qurilish
- VIII. Xizmatlar
- IX. Savdo faoliyati
- X. Ovqatlanish bilan ta'minlash
- XI. Innovatsiya

### **I. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni** *(2025- yilning 1- yanvar holatiga)*

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 8,6 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng ko'pi savdo sohasida 3,3 mingta (jamiga nisbatan 37,9 %) sanoat tarmoqlarida 1,0 mingta (11,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1,7 mingta (19,9 %), qurilishda 0,7 mingta (8,3 %), yashash va ovqatlanishda 0,6 mingta (6,8 %) tashish va saqlashda 0,3 mingta (3,1 %) qayd etilgan.

#### *Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (2025- yilning 1- yanvar holatiga)*



### **Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko'rsatkichlari**

2024- yilda Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 28 088 tani tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 26 805 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi Guliston shahri (8 054 ta), Sirdaryo (4 894 ta), Yangiyer shahri (2 897 ta), Mirzaobod (3 214 ta), Sardoba (1 573 ta) va Sayxunobod (1 550 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024- yilda Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 6 401 tani tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 6 353 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayollar sonining eng ko'pi Guliston shahri 2 129 ta, Sirdaryo 1 253 ta, Mirzaobod (764 ta), Yangiyer shahri (724 ta), Sayxunobod (271 ta) va Boyovut (240 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024-yilda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi sanoatda (6 168 nafar), savdo (8 803 nafar), qurilishda (4 294 nafar), boshqa turdagi xizmatlar (5 374 nafar), qishloq xo'jaligi (3 448 nafar) ga to'g'ri kelgan.

2024- yilda Sirdaryo viloyati bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 723 794,7 mln so'mni tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 566 415,6 mln so'mni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Guliston shahri 182 788,5 mln so'm, Sirdaryo 197 237,8 mln so'm, Yangiyer shahri 77 119,0 mln so'm, Mirzaobod 76 003,0 mln so'm, Sayxunobod 30 935,2 mln so'm, Xovos 27 718,0 mln so'm, va Boyovut 23 640,2 mln so'm tumanlariga to'g'ri kelgan.

Sirdaryo viloyati bo'yicha 2024- yilda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 154 483,6 mln so'mni tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 123 526,7 mln so'mni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Guliston shahri 50 170,5 mln so'm, Sirdaryo 47 442,6 mln so'm, Yangiyer shahri 14 458,3 mln so'm, Mirzaobod 13 948,9 mln so'm, tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarning eng ko'p hajmi sanoatda (217 708,2 mln so'm), savdo (177 722,9 mln so'm), boshqa turdagi xizmatlar (129 258,6 mln so'm), qurilishda (116 704,4 mln so'm) hamda qishloq xo'jaligi (82 387,6 mln so'm)ga to'g'ri kelgan.

## **II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rinlari soni**

2024- yil hisobot yilida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rinlari soni 10 519 tani tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha yangi ochilgan ish o'rinlari sonining eng ko'pi Guliston shahri (2 332 ta), Mirzaobod (2 940 ta), Yangiyer shahri (909 ta), Sardoba (531 ta) va Oqoltin (440 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 31,0 ming kishini tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 31,4 ming kishini tashkil etgan.

Tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 2024- yilda 268 kishi. Ma'lumot uchun: 2023- yil hisobot yilida tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 305 kishini tashkil etgan.

Fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 158 kishini tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 161 kishini tashkil etgan.

### *Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni (birlikda)*

|                          | <b>Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda</b> |                   | <b>Ulushi, % da</b> |
|--------------------------|------------------------------------------------------------------------------|-------------------|---------------------|
|                          | <b>2023- yil.</b>                                                            | <b>2024- yil.</b> |                     |
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>1 180</b>                                                                 | <b>1 252</b>      | <b>100,0</b>        |
| Guliston sh.             | 326                                                                          | 282               | 22,5                |
| Shirin sh.               | 52                                                                           | 56                | 4,5                 |
| Yangiyer sh.             | 101                                                                          | 113               | 9,0                 |
| tumanlar                 |                                                                              |                   |                     |
| Oqoltin                  | 75                                                                           | 75                | 6,0                 |
| Boyovut                  | 72                                                                           | 93                | 7,4                 |
| Sayxunobod               | 118                                                                          | 107               | 8,5                 |
| Guliston                 | 80                                                                           | 98                | 7,8                 |
| Sardoba                  | 71                                                                           | 114               | 9,1                 |
| Mirzaobod                | 78                                                                           | 83                | 6,6                 |
| Sirdaryo                 | 155                                                                          | 156               | 12,6                |
| Xovos                    | 52                                                                           | 75                | 6,0                 |

2024- yilda Sirdaryo viloyati bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 252 tani tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 72 taga ko'p demakdir. Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning, jami faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonidagi ulushi 14,5 % ni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng ko'pi Guliston shahri 282 ta (22,9 %), Sirdaryo tumani – 156 ta (12,6 %), Yangiye shahri - 107 ta (9,0 %) va Sardoba tumanida – 114 ta (9,1 %) to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarda o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 6 401 kishini tashkil qildi. Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 152 621,7 mln so'mga to'g'ri kelgan.

#### *Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko'rsatkichlari*

|                                                                                                                         | O'lchov birligi | 2023- yil | 2024- yil |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|-----------|-----------|
| O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni | kishi           | 2 275     | 6 401     |
| Mehnati daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar          | mln so'm        | 30 932,7  | 152 621,7 |
| Hisobot yili oxiriga mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni                                 | kishi           | 2 559     | 6 805     |
| shu jumladan oliy ma'lumotli                                                                                            | kishi           | 519       | 1 164     |
| Hisobot yilida yangi ochilgan ish o'rinlari soni                                                                        | birlik          | 566       | 10 519    |
| Hisobot yilida qisqartirilgan ish o'rinlari soni                                                                        | birlik          | 444       | 6 317     |
| Hisobot yilida mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni                   | kishi           | 2 585     | 6 979     |
| Tashqi o'rindoshlarning yillik o'rtacha soni                                                                            | kishi           | 25        | 268       |
| Fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni                     | kishi           | 4         | 158       |

### **III.Umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar**

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 19 625 322,3 mln so'mni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum miqdori va ulushining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'pi savdo sohasida 7 277 831,8 mln so'm (37,1 %), sanoat tarmoqlarida 5 328 455,3 mln so'm (27,1 %), qurilishda 2 137 082,4 mln so'm (10,9 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 464 312,2 mln so'm (7,5 %), va Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatishda 2 886 404,6 mln so'm (16,7 %)ni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Guliston shahri (3 810 418,1 mln so'm), Sirdaryo (4 976 609,5 mln so'm), Sayxunobod (3 155 595,7 mln so'm) va Boyovut (1 661 729,1 mln so'm) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdori 571 881,2 mln so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy natijani 147 241,2 mln so'mga ko'payishiga olib keldi.

Shuningdek, 2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 381 303,6 mln so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan sof foydani 119 010,1 mln so'mga ko'payishiga olib keldi.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining eng ko'pi Guliston shahri (85 044,2 mln so'm), Sirdaryo (204 980,1 mln so'm) va Boyovut (422 782,3 mln so'm) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'pi savdo sohasi – 286 229,6 mln so'm (50,0 %), boshqa turdagi xizmatlar – 15 517,6 mln so'm (2,7 %), sanoat – 243 518,2 mln so'm (42,6 %), qurilish – 52 515,0 mln so'mni (9,2 %) tashkil etgan.

*Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) va sof foydasi (zarar) miqdori (mln so'm)*

|                                                    | Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) |                  | Sof foyda (zarar) |                  |
|----------------------------------------------------|------------------------------------------------|------------------|-------------------|------------------|
|                                                    | 2023- yil                                      | 2024- yil        | 2023- yil         | 2024- yil        |
| <b>Jami</b>                                        | <b>424 640,0</b>                               | <b>571 881,2</b> | <b>262 293,5</b>  | <b>381 303,6</b> |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | -4 072,9                                       | -59 539,4        | -30 044,4         | -83 564,1        |
| Sanoat                                             | 181 793,6                                      | 243 518,2        | 125 724,4         | 178 802,9        |
| Qurilish                                           | 38 280,7                                       | 52 515,1         | 26 848,3          | 36 246,6         |
| Savdo                                              | 169 809,8                                      | 286 229,6        | 116 046,3         | 222 133,1        |
| Tashish va saqlash                                 | 2 989,9                                        | 10 825,4         | 886,6             | 5 963,7          |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 5 031,3                                        | 12 111,8         | 1 498,5           | 5 976,2          |
| Axborot va aloqa                                   | 4 193,5                                        | 3 767,4          | 3 771,4           | 3 233,5          |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 13 001,6                                       | 6 935,4          | 12 425,4          | 4 522,4          |
| Boshqa turdagi xizmatlar                           | 13 612,4                                       | 15 517,6         | 5 167,0           | 7 989,3          |

#### **IV. Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari**

2025- yilning 1- yanvar holatiga kichik korxona va mikrofirmalarning debitor qarzdorligi 5 161 973,7 mln so'm, kreditor qarzdorligi 4 452 749,4 mln so'mga yetgan.

Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi 6 542 803,8 mln so'm, asosiy vositalarning eskirish summasi 1 747 155,9 mln so'mni tashkil etgan.

**Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari mln so'mda**

|                                                                                        | 2023- yil    | 2024- yil    |
|----------------------------------------------------------------------------------------|--------------|--------------|
| Yil oxiriga debitorlik qarz                                                            | 7 021 250,2  | 5 161 973,7  |
| Yil oxiriga kreditorlik qarz                                                           | 4 469 775,9  | 4 452 749,4  |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash ) qiymati bo'yicha bahosi | 6 110 646,6  | 6 542 803,8  |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi                                      | 1 299 345,3  | 1 747 155,9  |
| Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati bo'yicha bahosi                 | 66 417,5     | 95 819,7     |
| Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi summasi                              | 39 911,1     | 40 225,1     |
| Tugallanmagan qurilishlar (o'rnatilmagan uskunalarni qo'shgan holda)                   | 17 704 568,2 | 20 418 050,1 |

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 631 648,5 mln so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 230 458,3 mln so'mga ko'p demakdir. 2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning ulushi jami sof tushumning 3,2 % ini tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Guliston shahri 239 132,1 mln so'm, Sirdaryo 156 048,3 mln so'm, Sayxunobod 59 283,2 mln so'm shuningdek, Mirzaobod 30 494,1 mln so'm tumanlariga to'g'ri kelgan.

**Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum hajmi va jamidagi ulushi**

|                          | Hajmi, mlrd so'm | Ulushi, % da |
|--------------------------|------------------|--------------|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>631 648,5</b> | <b>100,0</b> |
| Guliston sh.             | 239 132,1        | 37,9         |
| Shirin sh.               | 20 296,4         | 3,2          |
| Yangiyer sh.             | 21 959,6         | 3,5          |
| tumanlar                 |                  |              |
| Oqoltin                  | 14 430,8         | 2,3          |
| Boyovut                  | 26 109,2         | 4,1          |
| Sayxunobod               | 59 283,2         | 9,4          |
| Guliston                 | 29 344,1         | 4,6          |
| Sardoba                  | 16 852,2         | 2,7          |
| Mirzaobod                | 30 494,1         | 4,8          |
| Sirdaryo                 | 156 048,3        | 24,7         |
| Xovos                    | 17 698,5         | 2,8          |

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari) miqdori 32 169,9 mln so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 20 519,3 mln so'mni tashkil etgan.

**Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari  
(mln so'mda)**

|                                                                                       | <b>2023- yil</b> | <b>2024- yil</b> |
|---------------------------------------------------------------------------------------|------------------|------------------|
| Mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum                       | 401 190,2        | 631 648,5        |
| Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar tannarxi                                  | 321 664,3        | 510 892,1        |
| Foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari)                                     | 17 286,3         | 32 169,9         |
| Sof foyda (zarar (-))                                                                 | 7 350,0          | 20 519,3         |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi | 237 513,4        | 161 360,5        |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi                                     | 37 272,6         | 173 429,5        |

**V.Sanoat**

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 6 012 991,8 mln so'mni tashkil etdi. Bu esa 2023- yilga nisbatan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotini 1 959 799,2 mln so'mga oshganini ko'rsatdi.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi eng ko'pi, Yangiyer shahri 1 213 482,1 mln so'm, Sirdaryo 1 895 008,5 mln so'm, Boyovut 1 115 870,0 mln so'mni tashkil etgan.

**Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar) hajmi (QQS va aksizsiz) (mln so'mda)**

|                          | <b>Jami</b>                                                                    |                    | <b>Rahbari ayol kishi bo'lgan</b>                                              |                  |
|--------------------------|--------------------------------------------------------------------------------|--------------------|--------------------------------------------------------------------------------|------------------|
|                          | <b>Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mln so'mda</b> |                    | <b>Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mln so'mda</b> |                  |
|                          | <b>2023- yil</b>                                                               | <b>2024- yil</b>   | <b>2023- yil</b>                                                               | <b>2024- yil</b> |
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>4 053 192,6</b>                                                             | <b>6 012 991,8</b> | <b>34 886,6</b>                                                                | <b>101 630,4</b> |
| Guliston sh.             | 546 611,0                                                                      | 674 715,6          | 13 112,3                                                                       | 8 531,2          |
| Shirin sh.               | 495 061,4                                                                      | 7 954,9            | 1 005,6                                                                        | 862,9            |
| Yangiyer sh.             | 902 300,7                                                                      | 1 213 482,1        | 1 463,3                                                                        | 2 240,0          |
| tumanlar                 |                                                                                |                    |                                                                                |                  |
| Oqoltin                  | 30 206,7                                                                       | 255 331,2          | 191,6                                                                          | 605,4            |
| Boyovut                  | 168 883,7                                                                      | 1 115 870,0        | 185,6                                                                          | 422,9            |
| Sayxunobod               | 223 705,3                                                                      | 239 505,7          | 606,6                                                                          | 909,2            |
| Guliston                 | 49 534,4                                                                       | 29 047,1           | 3 971,4                                                                        | 1 863,3          |
| Sardoba                  | 68 939,3                                                                       | 133 083,9          | 946,4                                                                          | 988,2            |
| Mirzaobod                | 188 832,5                                                                      | 222 850,6          | 9 324,1                                                                        | 9 713,7          |
| Sirdaryo                 | 1 212 898,7                                                                    | 1 895 008,5        | 2 701,4                                                                        | 71 528,9         |
| Xovos                    | 166 218,7                                                                      | 256 142,2          | 1 378,0                                                                        | 3 964,7          |

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 101 630,4 mln so'mni tashkil etgan.

2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi, jami kichik korxona va mikrofirmalar ishlab chiqargan sanoat mahsulotining 1,7 % ini tashkil etdi. Hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmining eng katta ulushi Sirdaryo tumani (71 528,9 mln so'm) ga to'g'ri keldi.

## **VI.Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 1 113 313,1 mln so'mni tashkil etgan.

*Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi (2024- yilda).*

|                                                                          | <b>Hajmi, mln so'mda</b> |
|--------------------------------------------------------------------------|--------------------------|
| <b>Jami</b>                                                              | <b>1 113 313,1</b>       |
| O'rmonchilik va yog'och tayyorlash                                       | 43,9                     |
| Baliq ovlash va akvakultura                                              | 46 104,6                 |
| Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish | 1 067 164,6              |

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmining eng ko'pi Mirzaobod (293 282,2 mln so'm), Sardoba (169 145,9 mln so'm), Sayxunobod (122 885,9 mln so'm), va Oqoltin (103 904,9 mln so'm) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 12 506,9 mln so'mni tashkil etgan.


Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatishda 12 221,4 mln so'm, baliq ovlash va akvakulturada 285,5 mln so'mni tashkil etgan.

## **VII.Qurilish**

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 289 332,3 mln so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan qurilish ishlarini 68 442,3 mln so'mga oshishini ta'minladi.

